

## YAPON ADIBI XARUKI MURAKAMINING “XANALEY KO‘RFAZI” HIKOYASINING KONSEPTOLOGIK TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653725>

**Shuhratova Visola Jamshid qizi**

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Sharq tillari fakulteti

[visolashuhratova@gmail.com](mailto:visolashuhratova@gmail.com) +998933367538

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xaruki Murakaming “Xanaley ko‘rfazi” hikoyasidagi konseptlar o‘rganilgan. Shu bilan birga, hikoyaning asosiy mazmun-mohiyati, voqealarning qiziqarliligi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar berilgan. Murakami asarlarining mazmuni konsept jihatdan o‘xshashligi misollar orqali keltirilgan va uning barcha romanlarining kontseptosferasi milliy va individual ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy kontseptlardan tashkil topishi aytib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Konseptosfera, matn, yolg‘izlik, sadoqat, qalb, syorfinq, ona.*

### ABSTRACT

*This article explores the concepts in Haruki Murakami's story "Xanaley ko‘rfazi". At the same time, it provides information about the main content of the story and the interesting events. The conceptual similarity of the content of Murakami's works is illustrated by examples, and it is said that the conceptosphere of all his novels consists of basic concepts of national and individual significance.*

**Keywords:** *Conceptosphere, text, loneliness, devotion, heart, surfing, mother.*

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье исследуются концепции в рассказе Харуки Мураками «Бухта Ханалей». В то же время он дает информацию об основном содержании рассказа и интересных событиях. Концептуальное сходство содержания произведений Мураками иллюстрируется примерами, и говорится, что концептосфера всех его романов состоит из базовых понятий национального и индивидуального значения.*

**Ключевые слова:** *Концептосфера, текст, одиночество, преданность, сердце, серфинг, мать.*

## KIRISH

Kontseptosfera tushunchasi ma’lum xalqqa oid kontseptlarning tartibli majmuasi hisoblanadi. Har bir xalq kontseptosferasida milliy mentalitetning asosini tashkil etuvchi va yorqin milliy o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan ma’lum kontseptlar majmuasi aks etadi. Odatda, bu kabi kontseptlarni boshqa tilda ifodalash murakkab va hatto imkonsiz hisoblanadi. Ma’lumki, milliy kontseptosferada milliy mentalitet, millatning fan va madaniyati umumiy ko‘rinishda aks etadi. Til esa madaniy kontseptosferaning ajralmas bo‘lagi sanaladi.[1.11.]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xaruki Murakaming “Xanaley ko‘rfazi” hikoyasida “qalb”, “yolg‘izlik”, “sadoqat” kabi ajralmas bog‘liqlikka ega bo‘lgan xilma-xil badiiy kontseptlarga asoslanadi. Rivojlangan milliy tilda yaratilgan har qanday badiiy asar uning kontseptual maydonini boyitadi va kengaytiradi. Bu holat g‘arb madaniyatiga sodiqligini saqlab qoluvchi Xaruki Murakami ijodida ham o‘z ifodasini topadi. Ma’lumki, shaxsiy – mualliflik kontseptual olam manzarasi [3.95.] yozuvchining individual uslubiy xususiyatlari orqali yoritiladigan shaxsiy mualliflik kontseptual manzarasi majmuasini ifodalaydi. Shunday bo‘lsa-da, shaxsiy kontseptual manzara ikki sathda shakllanadi, bular: kontseptual va individual nutq sathlaridir. Bu ikki sathning yetakchisi sifatida kontseptual sath o‘rtaga chiqadi. Chunki olamning poetik manzarasidagi o‘ziga xoslikni yolg‘iz til shakllari to‘la ifodalab bera olmaydi.

Har qanday romandagi “matn kontseptosferasi”ni o‘rganish tadqiq etilayotgan asardagi tahlil maydonining to‘ldirilishi, kontseptlarning dinamik taraqqiyotini ko‘rish, ulardan birortasining diskursdagi ustunligini belgilash, kontseptning kognitiv qatlamini tahlil etish, baholovchi komponentni aniqlash imkoniyatini yaratadi. Sh.S. Safarov diskursda shaxs omilini o‘rganishning muhimligi borasida fikr yuritadi: “Pragmalingvistikaning shaxs omilini o‘rganishga qaratilishi o‘z vaqtida amalga oshirilgan harakat bo‘lib: shaxsning kognitiv tarmoqdagi o‘zaro munosabatlarda va diskursiv faoliyatida, diskursni mavhum bo‘lmagan lisoniy-kognitiv faoliyat mahsuli sifatida baholash, ya’ni aniq individum faoliyati mahsuli sifatida tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir”. [5.139.]

Xaruki Murakami romanlari kontseptosferasi milliy va individual ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy kontseptlardan tashkil topadi: Xuddi shunday, “Xanaley ko‘rfazi” nomli hikoyasida ham “yolg‘izlik-sadoqat-qalb” kontseptlari o‘zaro bog‘liqlikda hikoyaning asosiy kontseptosferasini tashkil qiladi.

Ushbu hikoyaning asosiy mazmuni o‘glidan judo bo‘lgan onaning sadoqati, qalbidagi kechinmalari va yolg‘iz farzand iztiroblari tashkil etadi. Ona ismi Sati

bo‘lib, uning o‘g‘li o‘n to‘qqiz yoshida, Xanaley ko‘rfazida ulkan nahang domida halok bo‘lgan. Nahang uni tiriklay yutmagan, u dengizga chiqib, syorfiing uchayotgan paytida nahang yigitning o‘ng oyog‘ini tishlab uzib oladi, va yigit yurak xurujidan cho‘kib ketadi. Shu sababli o‘limining rasmiy sababida shunday yozilgan bo‘ladi: “Cho‘kib o‘ldi”. Syorfiing taxtasi ham deyarli yarmigacha yulib olingan edi.

Xaruki Murakami asarlarida “yolg‘izlik” kontsepti “yolg‘izlik motivi” tarzida voqelangan bo‘lib, u “jarohatlangan qalb”ga ega qahramonning psixologik holatini o‘z ichiga oladi. Asardagi kontseptlar sistemasi “Xanaley ko‘rfazi” hikoyasining o‘ziga xos kontseptosferasini yaratadi. T.M. Gurevichning dissertatsion tadqiqotida “qalb” kabi nomoddiy borliqning milliy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan: “Yapon milliy an‘analarida qalb va tana” bilan bog‘liq tushunchalar qarama-qarshi qo‘yilmaydi, ammo “sinsin (qalb)” 「心身」 birligi, “yurak-qalb-tana” uyg‘unligi ifodasi o‘laroq mavjud hisoblanadi.

Hikoyadagi “Yolg‘izlik” konsepti muhokama qilinsa, avvalo onaning o‘g‘li o‘limini eshitgandagi holatidan boshlangan iztirob va qalb kechinmalari nazarda tutiladi.

**“Gonoluludagi yapon elchixonasidan jo‘natilgan xabarni qabul qilganida, Sati qayerda turgan bo‘lsa, o‘sha yerda o‘tirib qoldi. Miyasi bo‘m - bo‘sh, hech nima haqida o‘ylay olmasdi... U shunchaki devordagi bir nuqtaga tikilib, majolsiz o‘tirardi. Qanchalik uzoq o‘tirdi eslolmaydi. Ammo tez orada xushiga keldi va aviakompaniyaga Gonolulugacha chipta buyurish uchun qo‘ng‘iroq qildi. Elchixona xodimining aytishicha, imkoni boricha halokat joyiga tezroq yetib kelib, bu haqiqatdan ham uning o‘g‘limi yoki boshqaligini aniqlash zarur ekan. Oddiy anglashilmovchilik ham istisno qilinmasdi.”[2.20.]**

Ushbu voqeani eshitgandan so‘ng, onaning hayotidagi yolg‘izlik damlari boshlanadi. Umri oxirigacha har yozni Xanaley ko‘rfazida o‘g‘lining xotiralari bilan yolg‘izlikda o‘tkazishga odatlanadi. Kunduz vaqtlari dengiz sohilida syorfiing uchuvchilarni kuzatish bilan kunini o‘tkazadi va bu vaqtlarda turli xil voqeahodisalarni boshidan o‘tkazadi. Hikoyada bu holat quyidagicha yoritiladi:

**“Shundan buyon Sati Xanaley shaharchasiga har yili boradi. O‘g‘lining o‘lgan sanasidan bir necha kun oldin yetib kelib, bu yerlarda uch hafta yashaydi. Har gal plyaj kursi oladi va qirhoqda o‘tirib, syorferlarga tikiladi. Boshqa hech nima qilmaydi. Kunbo‘yi shunchaki qirg‘oqbo‘yida o‘tiradi. Shu tarzda o‘n yildan ko‘proq davom etdi. Ayol o‘sha kottejning o‘sha xonasida to‘xtar, o‘sha restoranchada tushlik qilar, yolg‘izlikda kitob o‘qirdi. Mana shuning bari yildan - yilga - xuddi nusxa ko‘chirgandek ... Bu yerda bir necha yoqimli**

**suhbatdoshlar orttirdi. Shaharcha katta emas, endi ko‘plar Satini tanirdi. Uni shu o‘lkada o‘g‘lini nahang o‘ldirgan yapon onasi sifatida bilishardi.”[2.25.]**

Ma’lumki, olamning badiiy qiyofasi – ikkilamchi, vositali qiyofadir. U ikki vositaga: til va olamning shaxsiy mualliflik kontseptual manzarasiga tayanadi. [9.8.] Shuningdek, har qanday badiiy asar shaxsiy mualliflik usulida olamni idrok etish, ya’ni olamni kontseptuallashtirishning xususiy varianti va, o‘z navbatida, olam tuzilishidagi universal qonuniyatlar ta’siridagi tarkibdan kelib chiqadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xaruki Murakami umumiy kontseptosferasida kontur xaritasi sifatida namoyish etish mumkin bo‘lgan badiiy kontseptlar tizimi [uzviyligi] yuzaga keladi. Badiiy konsept semantikasini belgilashda majoziy metafora birliklari yoki pretsedent bog‘lama shaklidagi assotsiativ komponentlar muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham har bir roman tahlilida barcha badiiy kontseptlarning vazifalarini e’tibordan qochirmagan holda yetakchi kontseptlarni ajratib olish tahlilning mahsuldorligini belgilaydi, chunki bu kabi “zanjirlar” obrazli kommunikativ tizimni yuzaga keltiradi. Bu esa “kokoro” va “sinsin” kontseptlari yapon madaniyatida an’anaviy jihatdan muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.[1.12.]

Badiiy matnning kontseptual tahlili tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarini o‘zaro yaqinlashtiradi. Ushbu yondashuv lingvistik va adabiy tahlilning eng muhim tomonlarini e’tiborga oladi hamda badiiy matnning mazmunini to‘liq aniqlash imkonini yaratadi. Kognitiv tahlil badiiy kontseptni kontekst va kommunikativ vaziyat ko‘lamida ko‘rib chiqish imkonini beradi, bu esa uning semantik belgilari va verballashuv xususiyatlarini yetarli darajada aniqlashga asos yaratadi.

Xaruki Murakami asarlari tarjimai jarayonida tajribali tarjimon D. Kavalenin yapon madaniyatiga xos bo‘lgan “qalb”, “yolg‘izlik” kontseptlarini obrazli tarzda boshqa madaniyat sohiblariga yetkazishga harakat qilgan. Ammo, “qalb”, “yurak” kabi yapon lingvomadaniyatiga xos bo‘lgan moddiy va ma’naviy bog‘likliklarni ifodalashda uning ma’lum kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi ko‘zga tashlandi.

Xaruki Murakami asarlari matni, mazmuni va g‘oyasini tarjimon tubdan anglaydi va tarjima jarayonida “mazmunning obrazli ifodasi”ga asosiy e’tiborini qaratadi. Bundan ayon bo‘ladiki, tarjimon Xaruki Murakami kontseptosferasini to‘liq o‘zlashtirgan. Xaruki Murakami ijodining asosiy g‘oyasini tashkil etadigan “yolg‘izlik”, “kokoro”, “sinsin” kontseptlarini asl nusxadagi obrazli ifodasini qayta yarata olgan, tarjimonlar olamning yapon milliy lisoniy va madaniy manzarasini o‘zlashtirganligini namoyish qilgan.

## REFERENCES

1. Amanullayeva K. M. Badiiy asar konseptosferasi va asosiy konseptlarning tarjimada qayta yaratilishi. Samarqand-2020.
2. Amanullayeva Kamola “Tokio afsonalari”, Xaruki Murakami hikoyalarining tarjimalari, 2017, 104b.
3. Алефиренко Н.Ф., Проблема вербализации концепта: Теоретическое исследование. - Волгоград: Перемена, 2003. -С 68;
4. Гальперин, 1981, с.36, с.28. Текст как объект лингвистического исследования. - М.: Наука, 1981. - 139 с.
5. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б 139.
6. K. M. Amanullayeva, V. J. Shuhratova, Attention to the State Language in the Educational Process, IJRASET, ISSN: 2321-9653; IC Value: 45.98; SJ Impact Factor: 7.429 Volume 9 Issue XI Nov 2021.
7. Александрович Н.В. Концептосфера художественного произведения и средства ее объективации в переводе (на материале романа С.Фицджеральда "Великий Гэтсби" и его переводов на русский язык). - М.: Флинта, 2010. -С 19.
8. V. J. Shuhratova, AN INTERPRETATION OF FANTASTIC IDEAS IN KAZUO ISHIGURO'S BURIED GIANT, GOSPODARKA I INNOWACJE Volume: 22 | 2022
9. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистики.-Воронеж: ВГУ, 2002. - С 8.
10. K. M. Amanullayeva, Shuhratova Visola Jamshidqizi, THE HARMONY OF CONCEPTS IN KAZUO ISHIGURO'S THE BURIED GIANT, ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 02, February 2022.
11. K. M. Amanullayeva, Shuhratova Visola Jamshidqizi, Кузуо Ишигуронинг “Дафн этилган гигант” асарида фантастик ғоялар талқини, “ИНТЕРНАУКА” № 28, Москва.2021, Б.67-68.
12. Shuhratova V. “KAZUO ISHIGURONING "DAFN ETILGAN GIGANT"ASARIDAGI KONSEPTLAR UYG‘UNLIGI”, So‘z san’ati xalqaro jurnali, ISSN 2181-9297, 5 - jild, 3 – son.
13. Lutfilloeva, F., & Madaminovich, T. I. (2020). Teaching Japanese Hieroglyphics Based on Mnemonics. Available at SSRN 3567573.
14. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале



английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.

15. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.

16. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.

17. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference*, Samarkand.

18. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.

19. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).

20. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.

21. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.

22. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.* (pp. 229-231).

23. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 5-10.

24. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (78)), 11-18.

25. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).

26. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).

27. Tuhtasinov, Ilhom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
28. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
29. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
30. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада мадания мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
31. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
32. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
33. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
34. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
35. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
36. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
37. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
38. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
39. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.

- 
40. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
41. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
42. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
43. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.